



Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1-oktabr holatiga 2914,2 ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan 61,6 ming kishiga yoki 2,2 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1888,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,8 %), qishloq aholisi soni 1025,7 ming kishini (35,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2021- yil yanvar-sentabr


- Aholi soni **61,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **58,8 ming nafarni** tashkil etdi.
- 9,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **16,6 mingta nikoh** va **2,3 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Namangan viloyati aholisining umumiyl o'sishi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)




Demografik holat

Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi (2021- yil 1– oktabr holatiga, 1 kv.km.ga kishi)



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'ssatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.kmga 391,5 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.kmga 4380,1 kishi), Namangan (899,1 kishi), Tolraqo'rg'on (850,6 kishi) va Norin (813,3 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Pop tumanida (77,6 kishi) va Mingbuloq tumanida (176,1 kishi) to'g'ri keladi kelmoqda.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni (2021- yil 1-oktabr holatiga ming kishi)



Demografik holat


Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskul-larning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 58,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 27,2 promilleni tashkil etdi, hamda 2020 yilning mos davriga nisbatan 1,2 promillega oshganligi (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 26,0 promille bo'lgan) kuzatildi.



**Tumanlar (shahar) kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti
(2021- yil yanvar-sentabr, 1000 aholiga nisbatan, promille)**




Demografik holat

Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 9,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 4,6 promilleni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,2 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,8 %i - o'simtalardan, 5,5 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,4 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,5 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 %i - yuqumli va parazitar kasalliklaridan hamda 13,2 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2021- yil yanvar-sentabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)




Demografik holat

Nikoh. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 16,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,7 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan Namangan shaharda 0,8 mingtaga, Pop tumanida 0,3 mingtaga va Yangiqo'rg'on tumanida 0,1 mingtaga ko'paygan.

Tumanlar (shahar) kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitisenti
(2021- yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

Nikohdan ajralishlar. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 2257 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2020- yilning mos davriga nisbatan Namangan shaharda 339 taga va Chust tumanida 73 taga ko'paygan.

Tumanlar (shahar) kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2021- yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Demografik holat

Migratsiya. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 2,2 ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 2,8 ming kishi bo'lган.


Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr
Ko'chib kelganlar	2,5	2,5
Ko'chib ketganlar	5,3	4,7
Migratsiya saldosi	-2,8	-2,2




Demografik holat

Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni



Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni



Demografik holat

Namangan shahridagi demografik holat. Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2021- yil 1–oktabr holatiga 657,0 ming kishini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan 20,5 ming kishiga yoki 3,2 % ga o'sgan.

Namangan shahri aholisi tabiiy harakati



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 15,1 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koefitsienti 1000 aholiga nisbatan 31,1 promilleni tashkil etdi va 2020- yilga nisbatan 1,4 ga (2020- yilning mos davrida 29,7 promille bo'lgan) o'sdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 2,5 ming ta o'lim qayd etilgan. O'lim koefitsienti 5,1 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan -0,2 promillega teng (2020- yilning mos davrida 5,3 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 3969 ta nikoh va 615 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsienti 8,2 promilleni tashkil qilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaydi. (2020- yilning mos davrida 8,7 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koefitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,3 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,8 promillega (2020- yilning mos davrida 0,5 promille bo'lgan) o'sdi.

Demografik holat

Namangan shahridagi demografik holat.

